



Qahramon RO'ZIYEV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: roziyevqahramon585@gmail.com

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Yuldashevna taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA TAOM VA NON KOMPONENTLI IBORALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbek tili frazeologik sathida taom va non komponentli iboralarning lug'aviy xususiyatlari tahlil qilingan. Bu jarayonda taom nomi bilan bog'liq iboralar tadqiqot obyekti qilib olingan. Taom nomlari bilan bog'liq iboralarning madaniyatimizda tutgan o'rni izohlangan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, taom va non komponentli iboralar, taom nomlari, lingvokulturologik talqin.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASES WITH FOOD AND BREAD COMPONENTS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the lexical features of expressions with the components of food and bread at the phraseological level of the Uzbek language. In this process, expressions related to the name of food were taken as the object of research. The role of expressions related to the names of food in our culture is explained.

Key words: Phraseological units, expressions with food and bread components, names of dishes, linguocultural interpretation.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗ С КОМПОНЕНТАМИ «ПИЦА» И «ХЛЕБ» В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются лексические особенности выражений с компонентами «еда» и «хлеб» на фразеологическом уровне узбекского языка. При этом в качестве объекта исследования были взяты фразы, связанные с названием блюда. Объясняется роль выражений, связанных с названиями продуктов питания в нашей культуре.

Ключевые слова: Фразеологизмы, выражения с компонентами еды и хлеба, названия блюд, лингвокультурологическая интерпретация.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar o'rganiladi. Tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi frazeologizmlar tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. Frazeologizmlar murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Shu ma'noda ularni amaliy va ilmiy o'rganish o'ziga xos yondashuvni, o'ziga xos metod va usulni taqozo etadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik, grammatik, uslubiy tadqiqotiga doir qator ishlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Birgina Shavkat Rahmatullayev frazeologik birliklarga bag'ishlangan o'ndan ortiq maqolalari, qo'llanmalari va monografiyalari e'lon qilingan, ilmiy tadqiqotlarining asosiy obyekti bo'lib xizmat qilgan[6]. Shuningdek, Sh.Almamatova "O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Bu dissertatsiyada frazemalarning komponent tahlili, xususan, frazemalarning ifodaviy va mazmun jihatidan shakllantirishdagi komponentlarning o'rni, frazemalarning o'z va paradigmatic shakli, komponentlarning tarkibi, variantlanishi kabi masalalarni tatqiq etishni asosiy maqsad qilgan[1].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari, lingvokulturologik va kognitiv talqini kabi masalalari asosiy tadqiqot masalasi sifatida kun taribida turibdi. Har qanday til birligi nafaqat kommunikativ fuksiyaga ega, balki o'sha tilda gapiruvchi qavmni, elatni, xalq tarixini, yashab turgan turmush tarzini, milliy-madaniy xazinasini namoyon etuvchi vosita hamdir. Bu o'rinda, tillardagi mavjud turg'un so'z birikmalar alohida diqqatga sazovordir.

Tahlil va natijalar. Iboralarning aksariyat qismini asosiy ma'no-mazmuni, milliy-madaniy o'ziga xosligi bilan "sug'orilgan". Olima Nodirabegim Tursunova "frazeologik birliklar har qanday xalqning, elatning etnomadaniy mazmun-mohiyatini ochishda, ularning ichiga chuqurroq kirishda katta

ahamiyat kasb etishini" ta'kidlab, frazeologik birliklarni quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Milliy kiyim ishtirokida shakllangan frazeologik birliklar: "to'nini teskari kiyimoq", "do'ppisini osmonga otmoq".
2. Milliy urf-odatlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "non sindirish"
3. Milliy taomlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "moshxo'rdaga qatiq bo'lmoq"
4. Meva va sabzavot nomlari bilan bog'liq turg'un birikmalar: "tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq", "qovun tushirmoq"
5. Geografik joy nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar: "Asakasi ketmoq", "Ahmoqqa Quva bir tosh"
6. Milliy bayramlar bilan bog'liq frazeologizmlar: "Xaytdan so'ng xina qo'ymoq"
7. Diniy tushunchalar bilan bog'liq frazeologizmlar: "Xavzi kavsarni o'ylamoq"[2].

Tasnifdan ma'lum bo'ladiki, taom komponentli frazeologik birliklar ham tilimizda etnomadaniy xususiyatlarni ochishda, ularning ichiga chuqurroq kirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bizningcha ham xuddi shunday. Va aynan taom komponentli frazeologik birliklar tilimizda katta guruhni tashkil etadi. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"[3] ning yangi nashrida 50 dan ortiq taom va non komponentli frazeologik birliklar kiritilgan. Bizningcha esa shevalar va badiiy asarlarda ishlatilgan frazeologik birliklarni yig'ish orqali bu raqamlarni yanada kengaytirish mumkin. Masalan, "Moshxo'rdaga qatiq bo'lmoq" iborasi "O'zbek tili frazeologik lug'ati"[3]ning yangi nashriga kiritilmagan. Ammo bu ibora xalqimiz nutqida faol ishlatilib kelinmoqda. Iborasini tahlil qiladigan bo'lsak, Moshxo'rda Mosh bilan guruchdan tayyorlanadigan suyuq taom. Kechqurun Saodat kampir do'ppiday o'choq oldida cho'qqayib, moshxo'rda qaynatarkan, Yo'lchi kirib keldi. Oybek, Tanlangan asarlar[4,621]. "Moshxo'rda" taomi qatiq bilan birga deyarli iste'mol qilinmaydi. Agar qatiq solinsa taomning xushamligi yo'qoladi. Shundan xalqimiz moshxo'rdani odatda qatiq bilan

iste'mol qilmaydi va bu holat iborada ham "biron narsa, kimsa yoki hodisa ortiqcha" ekanligini anglatadi.

Qulog'iga lag'mon osmoq, Qulog'iga lag'mon ilmoq "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ga ham, "O'zbek tili frazeologik lug'ati"ning yangi nashriga ham kiritilmagan keltirilmagan. Ammo jonli so'zlashuv nutqida keng iste'moldagi birikmalardan biri hisoblanadi. Lag'mon (uyg'urcha "la myan" — cho'zilgan xamir) — xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat. Bu tansiq taom asli Xitoy pazandaligiga mansub bo'lib, "lya" — chuvalchang, «myan» — xamir ma'nosini anglatadi. Uzoq o'tmishda bizga uyg'ur oshpazligi orqali kirib kelgan va hanuzgacha saqlanib qolgan. Kumush opam ham shu yerda edilar. Lag'monni uncha xushlamas ekanlar, shekilli, yaxshi yemadilar. A. Qodiriy, O'tgan kunlar[4]. Bu ibora "biror kishiga yolg'on gapirish, aldash" ma'nosida izohlanadi. Lag'monning o'zi cho'ziq yoki uzun ingichka xamir bo'lganligi uchun xalqimiz tomonidan uzoq vaqt biror-bir ish harakatni bajarmay yurishga qiyoslanadi, o'xshatiladi. Bu frazeologik ma'no shu hosila asosida yuzaga kelgan.

Nag'masiga non pishmoq varianti: Nag'masiga osh pishmoq. Shev. Nag'masiga nonpalov pishmoq. Arabcha nag'ma leksemasi o'zbek tilida ko'plab ma'nolarda ishlatiladi: 1 esk. Kuy, ohang, navo; musiqa tovushi. [Komil:] Bu xushnud nag'malardan benasib bo'lmang, deb atayin uyg'otdim, bir eshitib qoling! O.Yoqubov, Aytisam, tilim kuyadi, aytmasam — dilim. 2 Labda yurg'izib puflab chalinadigan musiqa asbobi. Bolalar tarqalishadi. Qoravoy nag'masini chaladi... R.Fayziy, Sen yetim emassan. 3 ko'chma salb. Ortiqcha qiliq, xarxasha. E, bu odamning nag'masi ko'pga o'xshab qoldi. Uyg'un, Hurriyat. 4 ko'chma s.t. Ortiqcha tashvish, daxmaza, ikir-chikir. To'yning nag'masi ko'p bo'lar ekan[4]. Keltirilgan frazeologik birliklarda nag'ma leksemasining ko'chma salb. "Ortiqcha qiliq, xarxasha" ma'nosi xalqimiz uchun qadri bo'lgan taom nomlari nonpalov va osh leksemalari bilan birgalikda ishlatiladi va "biror muhim ishda o'zini olish, o'jarlik va befarqlik" ma'nolarida xalqimiz nutqida qo'llaniladi. Shuningdek, Ushbu frazeologik birlikda "o'jarlikning davomiyligi" ma'nosini ham ko'rish mumkin. Zero, osh va nonpalov xalqimiz tomonidan uzoq va maromiga yetkazib tayyorlanadigan taomlar sirasiga kiradi.

Hasipi sovidi. Hasipi — so'yilgan qo'y yoki qoramolning ichagiga go'sht, jigir, qorataloq kabilarning qiymasi va guruh aralashtirib solinib, qozonda qaynatib yoki qasqonda dimlab tayyorlanadigan taom[4]. Hasip o'zbek xalqining qadimiy, taomlaridan biri hisoblanadi. To'y, bayram dasturxoniga, aziz mehmonlarga atab tayyorlanadigan ushbu tansiq taom barcha shahar va qishloqla o'xshonalarida hozirgacha unutilmay saqlanib keladi. Hasipning odatiy hamda dimlama hasip, tuyma hasip, ochiq hasip kabi turlari mavjud. Har biri o'ziga xos usulda tayyorlanadi. Asosan issiq holda iste'mol qilinadi. Suvuq holatida esa o'zining mazasi va xushtamligini yo'qotadi. Shundan kelib chiqqan holda xalqimiz hasipi sovidi iborasini "ko'ngli sovidi, hafsalasi pir bo'ldi" ma'nolarida ishlatadi. Xudoy haqqi xumsalaringdan hasipim sovidi.A. Qodiriy, Kichik asarlar.

Og'zidagi tolqon erimadi. Bu ibora ham xuddi Og'ziga so'k solmoq yoki Og'ziga tolqon solmoq (tolqon yutmoq) Sinonimi: mum tishlamoq; og'ziga qatiq ivitmoq; og'ziga nos solmoq. O'xshashi: "lom-mim" demaslik; dam(i) chiqmadi - dam(i)ni chiqarmaslik; og'z(i)ni ochmaslik [5] kabi iboralar bilan variantdoshdek ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Og'ziga so'k solmoq ayn. og'ziga tolqon solmoq iborasi "tovush chiqarmay, indamay, hech narsa demay turmoq, mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik" ma'nosini anglatadi. Nihoat, Fayzulla chidab turolmadi: -Ha, og'zinglarga so'k solvoldilaringmi bugun? X. Sultonov, Bir oqshom ertagi. Nega jim o'tiribsizlar? Og'izlaringizga tolqon solib oldilaringiz-mi? I. Rahim, Chin muhabbat. Og'zidagi tolqon erimadi iborasi yuqoridagi iboralarga okkazonal tarzda qo'llanilgan bo'lib, "uzoqroq muddat jim turish" ma'nosini ifodalashi bilan xoslanadi:

Samandar taklifini yana takrorladiyamki, talabalarning og'zidagi tolqon erimadi (U.Hamdani. Sabo va Samandar).

Qo'liga atala ichgan. Atala ham o'zbek xalqi dasturxonining doimiy taomlaridan biri hisoblanadi. Atala taomi bilan bog'liq ko'plab iboralar xalqimiz nutqida ishlatiladi. Masalan, "ataladan suyak chiqmoq" "atalasini chiqarmoq" kabi. Qo'liga atala ichgan iborasida taomning "suyuqlik" ma'nosiga e'tibor qaratiladi va bu ibora "Biror narsani tutib turolmaslik, biror ishini eplolmaslik" ma'nosida qo'llaniladi.

Xalqimizning non haqida alohida qadriyatlarga, urf-odat va an'analarga ega ekanligi ma'lum. Shu nuqtai nazardan xalqimizning kunlik muloqot nutqida ko'plab non bilan bog'liq iboralarni ko'rishimiz mumkin: non deganda, kesak g'irillagan (g'irillaydigan) yoki non deganda, kesak g'irillaydi, non ursin, non yemoq, non(i) butun, non(i) yarimta bo'ldi, non(i)ni yarimta qilmoq, non(i)ni tuya qilmoq, nonini yemoq; non yemoq, nonni butun qilmoq; non(i) butun bo'ldi, og'z(i)dagi non(i)ni oldirmoq[3].

"O'zbek tili frazeologik lug'ati"ga Non sindirmoq ayn. non ushatish, patir ushatmoq iboralarini kiritilmagan. Non sindirmoq ayn. non ushatish, patir ushatmoq — "unashtirish" ma'nosini anglatadi. Bu o'zbek xalqining etnomadaniy marosimlari bilan bog'liq holda shakllangan. Nikoh to'yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya'ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o'z roziligini bergach, sovcilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to'y bilan bog'liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi bilan bog'liq. "non yemoq" iborasi savdogarlar nutqida "biror kelim-daromad bilan tirikchilik o'tkazmoq" ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga "non yemoq" iborasi etnomadaniy marosimlardan biri bo'lib, azadur oilani qarindoshlar chaqirishib, xafagarchiligini keltkazish ma'nosida oilaviy dasturxon yoziladi va bu "azadan chiqish, ochilish" ma'nosini anglatadi.

Shu o'rinda aytish joizki, Xamir komponentli iboralar ham o'zbek tilida bisyor. "O'zbek tili frazeologik lug'ati"ga esa xamir uchidan patir, xamirdan qil sug'urganday iboralari kiritilgan. "Harakati sust, imillagan" odamlarga nisbatan ishlatiladigan xamiri achimagan (Obbo, xamiri achimagan-ey, tusha qolmay-sanmi endi!? N. Safarov, Qurbonali) va "kayfiyati buzilmoq, fe'li aynimoq" ma'nosida ishlatiladigan Xamiri achimoq (Qarab tursam, o'rtog'imning xamiri achib, kayfi lanj tortib ketyapti. S. Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema) iboralari ham kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Go'sht mahsuloti ham xalqimizning kunlik iste'molining asosini tashkil etadi. Shu jihatdan, go'sht bilan bog'liq frazeologik birliklar ham xalqimiz nutqida tez-tez ko'zga tashlanadi. Jumladan, noma'qul buzoqning go'shtini yemoq. Ikki ma'noda izohlanadi: 1) xato qilmoq, adashmoq; 2) nodonlik qilmoq. -Noma'qul buzoqning go'shtini bir yedik-da,— deydi Berdi tatar. A. Qodiriy, Obid ketmon. Qip-qizil go'sht frazeologik birligi "hech vaqosi yo'q, kambag'al, nochor" tarzida qo'llaniladi. -Hol so'r, ammo hamyonni ham so'r, uka! Bilasan-ku ahvolimizni, qip-qizil go'shtimiz, — dedi Umarali. Oybek, Ulug' yo'l. "Qo'ldan hech narsa kelmaydigan, landavur" odam haqida gapirilganda o'zbek tilida bir qop go'sht frazeologik birligidan foydalaniladi. Ro'ziboy deganimiz bir qop go'sht bo'ldi-qoldi. "Guldasta". Go'shtingni yeyman. Do'q, po'pisa ma'nosidagi ibora. Yeyman deydi go'sht(t)ini, Qayraydi kal tishini. «Ravshan».

Xulosa va takliflar. O'ylaymizki, boy va qadimiy tilimizning "lug'at sandig'ini" ochib izlasak bundan ham ko'plab frazeologik birliklarni topishimiz mumkin. Bu birliklar milliy qiyofamizni ko'rsatuvchi alohida unsur sifatida baholanadi. Zero, bunday iboralarni boshqa tilda uchratmasligimiz aniq. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, gastronomik komponentli frazeologik birliklar ham tilimiz lug'at tarkibida munosib o'ringa ega va anchani tashkil etadi. Uni tatqiq etishi bilan xalqimizga xos madaniyat, urf-odat, yashash tarzi yanada oydinlashadi. Gastronomik komponentli frazeologik birliklar milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan holda har qanday tilning tarixiy, milliy, madaniy xazinasini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bekiyeva M. Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsionalekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vosita. "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" jurnali 1-son. 2022-yil yanvar, 651-bet.

2. Tursunova Nodirabegim. Frazеologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Soʻz sanʼati xalqaro jurnali 3-son. T.: 2020, 141-142-betlar.
3. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati [Matn] : lugʻat / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.Oʻrazova, K.Rixsiyeva. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2020.
5. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati - Toshkent, 1978.
6. “Oʻzbek tilida frazeologik birliklarning asosiy semantik turlari haqida” (1956), “Sintaktik tahlilda frazeologik birliklar ustida ishlash” (1956), “Hozirgi zamon oʻzbek tilidagi oʻzlashgan frazeologik birliklar haqida”(1957), “Hozirgi zamon oʻzbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining oʻzgarishi haqida” (1963), “Feʼl frazeologik birliklarda moslashuv”(1964), “Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari”, “Nutqimiz koʻrki”(1970)